

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM**  
**VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT**  
**UNIVERSITETI**

201 ónemis guruhi talabasi

Xasanova Gullolaning

õNemis tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan

so‘zlarö mavzusidagi

# REFERATI

**MAVZU: NEMIS TILIDAN O`ZBEK TILIGA O`ZLASHGAN  
SO`ZLARNING QO`LLANISHI**

**REJA:**

I. Bob. Nemis tili so`z xazinasining boyishida o`zlashgan so`zlarning o`rnií ...í .

1. 1. Nemis tili so`z xazinasining kengayish omillarií í í í í í í í ..í í í .....

1. 2. Nemis tiliga o`zlashgan so`zlarning qo`llanishií í í í í í í í í í í .....

II Bob. O`zbek tili so`z xazinasining boyishida nemis tilidan o`zlashgan  
so`zlarning o`rnií ..

2.2. Nemis tilidan o`zbek tiliga o`zlashgan so`zlarning qo`llanishií í í ..í í .

2.2. XX asr o`zbek adabiyotida nemis tilidan o`zlashgan so`zlarning  
qo`llanishií ..

Xulosaií ..

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatií ..

## BIRINCHI BOB

### Nemis tili soʻz xazinasining boyishida oʻzlashgan soʻzlarning oʻrni

#### 1.1. Nemis tili soʻz xazinasining kengayish omillari.

Nemis tili soʻz hazinasi asosan 4 xil yoʻl bilan kengayib boradi. 1. Soʻz yasash orqali. 2. Boshqa tillardan soʻz olish orqali; 3. Maʼno oʻzgarish orqali; 4. Yangi frazeologizmlarni yasash orqali; Bulardan koʻpchiligini soʻz yasash va boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar guruhi tashkil qiladi.

##### 1. Soʻz yasash orqali:

Zahlwort + Substantiv	Dreieck, Zweikampf
Pronomen + Substantiv	Ichform, Selbstgespräch
Adverb + Substantiv	Zusammenkunft, Voraussage
Präposition + Substantiv	Fürwort, Umwelt

##### 2. Oʻzlashgan soʻzlar orqali:

Lotin tili orqali: Fenster nach lat. Fenestr - deraza; Mauer nach lat. Murus - devor; Wein nach lat. Vinum - vino; Tafel nach lat. Tabula ó doska.

Bundan tashqari nemis tiliga quyidagi tillarning taʼsiri natijasida nemis tili soʻz hazinasiga oʻzlashgan soʻzlar kirib kelgan:

##### 1. Slavyan tilli taʼsiri ostida:

Peitsche ó aus dem šbi õ; Pflanze ó aus dem latein. platna; Fenster ó latein. finistra; Markt ó merkatus

Kloster, Nonne, Kreuz;

##### 2. Grek tili taʼsiri ostida: ó Chor

3. Fransuz tili taʼsiri ostida: Möbel, Mode, Adresse Mama, Papa, Toilette.

4. Ingliz tili taʼsiri ostida: Wirtschaft, IT-Bereiche, Sport (in-line, bungee jumping), Musik (pop, rock), teilweise Politik (summit, statement), Leistung - Management, Arbeit -Job, Randesvous ó Date, Kraft ó Power, Chef ó Boß, Haushalt ó Budget

5. Italyan tili taʼsiri ostida: Piano, forte, pianissimo; Bank-Begriffe

## 1.2. Nemis tili soʻz xazinasiga boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar.

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, har bir til soʻz hazinasining kengayib borishida boshqa tillardan kirib kelgan oʻzlashgan soʻzlar katta oʻrin tutadi. Shu jumladan nemis tili ham bundan mustasno emas.

Nemis tili soʻz hazinasini rivojlanishida shu tilning boshqa tillar bilan aloqasi juda muhim rol oʻynaydi. 12-asrgacha nemis tiliga faqatgina lotin tili oʻz taʼsirini oʻtqazib kelgan.

Bundan tashqari nemis tiliga quyidagi tillarning taʼsiri natijasida nemis tili soʻz hazinasiga oʻzlashgan soʻzlar kirib kelgan:

### 1. Slavyan tili taʼsiri ostida:

Peitsche ó aus dem šbi õ; Pflanze ó aus dem latein. platna; Fenster ó latein. finistra; Markt ó merkatus Kloster, Nonne, Kreuz.

### 2. Grek tili taʼsiri ostida: ó Chor

3. Fransuz tili taʼsiri ostida: 16-17 asrdan boshlab nemis tili soʻz hazinasiga fransuz tilidan yangi soʻzlar kirib kela boshladi. Buning natijasida nemis tiliga fransuz tilidan 1200 ga yaqin soʻz kirib kelgan. Masalan: Möbel, Mode, Adresse Mama, Papa, Toilette.

4. Ingliz tili taʼsiri ostida: Wirtschaft, IT-Bereiche, Sport (in-line, bungee jumping), Musik (pop, rock), teilweise Politik (summit, statement), Leistung - Management, Arbeit - Job, Randesvous ó Date, Kraft ó Power, Chef ó Boß, Haushalt ó Budget

5. Italyan tili taʼsiri ostida: Piano, forte, pianissimo; Bank-Begriffe.

6. Amerika-ingliz tillari orqali: killen, der Discjockey, die Cola, der Flipper, der Computer, das Design, der Eyliner, der Fan, der Fußballrowdy, die Hardware / Software, der Hotdog, der Match, das Make - up, der Popstar, der Poster, das Recycling, das Shampoo, das Skateboard, der Skinhead, der Song, der Swimmingpool, der Synthesizer, das Team, der Walkman, der Killer, die Clique, die Action, der Boss, der Dealer, das Feeling, der Freak, der Junkie die Power, der Quickie, der Trouble u.a.

Demak, nemis tili leksikasi ichki manbaalar orqali kengayib borishi bilan birgalikda, tashqi manbaalar asosida ham boyib boradi. Bunda amerika ó ingliz,

slavyan, fransuz, ingliz, grek va hind - yevropa tillarining taʼsiri nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birgalikda dunyodan boshqa tillardan soʻz olmasdan, faqat oʻz ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yoʻq. Bundan oʻz navbatida nemis tili ham mustasno emas.

Gʻarbiy Yevropa xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyoti boy maʼnaviy manba sifatida qadim - qadimdan markaziy osiyo va turkiyzabon xalqlar tarixining diqqat eʼtiborida boʻlib keldi. Nemis xalqi tarixi, madaniyati va adabiyotining Oʻzbekistonda oʻrganilishi tarjima qilinishi esa bir necha koʻp yillik tarixga ega.

Jumladan oʻzbek tili soʻz xazinasining kengayishida nemis tilidan kirib kelgan soʻzlar salmogʻi anchagina tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, nemis tili leksikasi ichki manbaalar orqali kengayib borishi bilan birgalikda, tashqi manbalar asosida ham boyib boradi. Bunda amerika - ingliz, slavyan, fransuz, ingliz, grek va hind yevropa tillarining taʼsiri nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birgalikda dunyodan boshqa tillardan soʻz olmasdan, faqat oʻz ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yoʻq. Bundan oʻz navbatida nemis tili ham mustasno emas.

## IKKINCHI BOB

### O'zbek tili so'z xazinasining boyishida nemis tilidan o'zlashgan so'zlarning o'rni

#### 2.1. Nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning qo'llanishi.

Har bir til so'z hazinasining boyishi va rivojlanishida shu davrda yuz berayotgan jarayonlar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan har bir tilning rivojlanishida boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning ham o'rni beqiyosdir.

XX asr o'zbek adabiyotida nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalari bo'lmish A. Qodiriy, A. Qahhor, Oybek, H. Olimjon, G. Gulom, Said Ahmad, O'akir Hoshimov kabi ko'pgina adiblarimizning asarlarida nemis tilidan o'zlashgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

O'z o'rnida fikrlarimizni misollar orqali keltirib o'tsak:

1. Anshlag - nem. Anschlag - afisha, ommaviy e'lon; - Teatr, kino sohasida chiptalar sotilib bo'linganligi haqidagi mahsus e'lon.
2. Grunt - nem. Grund - zamin, tuproq; Tuproq va tog' jinslari aralashgan qatlarning umumiy soni.
3. Landshaft - nem. Landschaft - o'lka, mamlakat, manzara, ko'rinish; Ko'rinishi, relfi, iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi, gidrologik rejimi va bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan xudud, joy.
4. Makler - nem. Makler - vositachi, dallol; Fond, tovar va valyuta birjalarda tuziladigan kelishuvlarda, hamda pulli vositachilik xizmatlarini amalga oshiruvchi ishbiarmon.
5. Marshrut - nem. Marschroute - olg'a qarab yurish; Avtobus, poyezd, samolyotda kishilarni avvaldan belgilangan va to'xtash joylari tayin bo'lgan qatnov yoki safar yo'li, yo'nalishi.
6. Linsa - nem. Linse - yasmiq; Shishadan yoki sintitek materialdan tayyorlanadigan qavariq yoki botiq sirt bilan chegaralangan va nur taramini o'zgartiruvchi shaffof jism.
7. Matrisa - nem. Matrise - bachadon, ona, manba, ro'yxat;

a) tex. Metallurgiyada metallarga bosim bilan ishlov berishda tayyorlanadigan buyum xomashyosi, chala tayyor nusxasini kerakli shaklga keltirish uchun ishlatiladigan qoliplarning ish qismi.

b) Turli sonlar va matematik ifodalar joylashtirilgan satrlar va ustunlardan iborat to'g'ri burchakli jadval.

8. Penal - nem. Pennal - pero, pat; Ruchka, qalam, rezina solib qo'yiladigan cho'zinchoq quticha, g'ulof.

9. Plakat - nem. Plakat - e'lon, afisha; Targ'ibot, tashviqot, axborot yoki reklama maqsadlarida ko'cha va jamoat muassasalariga ilib qo'yiladigan qisqa matnli surat, tasvir. 10. Plaskart - nem. Platzkarte ó Platz - joy, Karte-chipta; Yo'lovchilar poyezdi vagonida muayyan raqamli alohida joyni egallash huquqini beradigan chipta. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zaro aloqalarning rivojlanishi nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan birgalikda o'zbek tili so'z hazinasini yanada boyishi mumkinligidan dalolat beradi.

## **2.2. XX asr o'zbek adabiyotida nemis tilidan o'zlashgan so'zlarning qo'llanishi.**

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy yo'l shu qadar chigal, murakkab hodisalarga boyki, uni dabdurustdan baholashning hech iloji yo'q. Su tufayli ham o'tmish hayot to'g'risida har bir ilm sohasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib xulosalar yasaydi.

Jumladan birinchi va ikkinch jahon urushi davrida nemis tilidan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar kirib kelgan. Ushbu o'zlashgan so'zlarni A. Qodriy, A. Qahhor, S. Ahmad, E. Vohidov, O'atir Xoshimov kabi ko'plab adiblarimizning asarlarida uchratishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o'tgan fikrlarimizni misollar orqali ifodalab o'tsak:

1. Axaxta - nem. Hauptwache - qamoq, uy, qamalish joyi, turma; - o'Qq poshshoning avaxtasi ham ko'p, sibir ham kengö. - M.Ismoilij öFargöona tong otgunchaö.

2. Bantik - nem. Band - tasma, tugun, kichkina bant, bantikcha; - öUlarining biri sochiga bantik taqqan qizcha chumchuqqa o'xshab bir oyoqlay hakkalar,

boshqasi atlas koʻylakcha kiyib olgani esa sanab turardi. - Oʻ Xoshimov  
öQalbingga quloq solö.

3. Buksir - nem. Bugsierer - tortuvchi kema, arqon; Boshqa kema, barjani  
shatakka olib boruvchi maxsus kema. - öParoxodning buksirini eslatuvchi bu  
agregatlar bir yoʻda uch ishni ado etardi. - Sh. Rashidov öBoʻrondan kuchliö.

4. Vaxtyor - nem. Wachter - qorovul; Muassasalarda navbatchi qorovul.-  
öBir guruh yuqori kurs studentlari turadigan bu uyda xonalar kam va tarqoq  
boʻlgani uchun vaxtyor oʻtirmas, har xonaning kaliti maʼlum bir joyga yashirib  
qoʻyilar edi.ö - P. Qodirov öUch ildizö.

5. Veksel - nem. - oʻzgarish, almashtirish; - öShu bas, - dedi boyvachcha, -  
buni veksel dedilar. Muddatida toʻlaydiö. - Oybek. öTanlangan asarlarö.

6. Verstak - nem. Werkstatt - ustaxona; - Duradgorlik, slesarlik qoʻl ishlari  
bajariladigan maxsus dastgoh. - öHasan oʻychanlik bilan verstak ustida turgan  
elektromotorlar korpusiga boshini burdiö. ó Iboxon. öUlugʻ yoʻlö.

7. Galstuk - nem. Halstuch - boʻyin, roʻmol; Koʻylak yoqasi ostidan  
oʻtkazib, oldini tugun yoki bint qilib taqiladigan mato, boʻyinbogʻ - öQodirning  
koʻylagi oq, galstugi koʻk ekan. - A. Qahhor. öQanotsiz chittakö.

8. Gantel - nem. Hantel - Kalta dasta bilan birlashtirilgan ikkita choʻyan  
shardan iborat gimnastika asbobi.

9. Gastrol - nem. Gast - mehmon; Teatr artisti yoki artistlar guruhini boshqa  
shahr yoki hududdagi konserti. - öYozda Qoʻqon teatri Fargʻonaga gastrolga  
brogan edi. - H. Gʻulom. öToshkentliklarö.

10. Gaupvaxta - nem. Hauptwache - bosh, asosiy qorovul; Qamoqqa hukm  
qilingan harbiy hizmatchilar saqlanadigan joy. - öGunohkorö endi gaupvaxtaga  
ketdimö deb turganida, birdan darsdan soʻrab qolar, sal tutilsa, ö intizom buzadigan  
kuchni mana bunga ishlatish kerakö der edi leytenat.ö - Shuhrat. öShinelli yillarö.  
Oʻzbek tili soʻz hazinasining boyishida nemis tilidan oʻzlashgan soʻzlar oʻzgacha  
ahamiyat kasb etadi. Nemis tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek tili soʻz  
hazinasiga XX asrning birinchi va ikkinchi yarmidan boshlab kirib kela  
boshlagan. Oʻz oʻrnida bu jarayonga birinchi va ikkinchi jahon urushi, hamda  
oʻsha davrning taʼsiri juda katta boʻlgan.



## Umumiy xulosa

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, hech bir til oʻz ichki imkoniyatlari bilangina kengayib qolmaydi.

Til kundalik hayotda oʻz fikrlarimizni toʻliq bayon etishimizda asosiy vositachi vazifasini oʻtaydiki, har kungi nutqimizdan anglashilayotgan turli maʼnolarni yuzaga chiqishida u yordamga keladi. Til ijtimoiy hodisa boʻlganligi sabab, kundan - kunga oʻzgarib boradi va tabiiyki bu borada u tilshunos mutaxassislarimizdan yangidan - yangi izlanishlarni amalga oshirishlarini talab qiladi.

Bundan tashqari har bir til soʻz hazinasining boyishi va rivojlanishida shu davrda yuz berayotgan jarayonlar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan har bir tilning rivojlanishida boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarning ham oʻrni beqiyosdir.

Jumladan, oʻzbek tili soʻz hazinasining boyishida nemis tilidan oʻzlashgan soʻzlar oʻzgacha ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadqiqot davomida nemis tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlarni tahlil qilishimiz natijasida bir qancha xulosalarga kelindi. Bular quyidagilar:

1. Nemis tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek tili soʻz hazinasiga XX asrning birinchi va ikkinchi yarmidan boshlab kirib kela boshlagan. Oʻz oʻrnida bu jarayonga birinchi va ikkinchi jahon urushi, hamda oʻsha davrning taʼsiri juda katta boʻlgan.

2. XX asr oʻzbek adabiyotida yaratilgan asarlarda nemis tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlarning qoʻllanish salmogʻi anchagina. Ushbu soʻzlarning aksariyatini 20 - asrning ikkinchi yarmida yaratilgan asarlarda koʻplab uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, oʻzaro aloqalarning rivojlanishi nemis tilini oʻrganishga boʻlgan qiziqishning ortishi bilan birgalikda, oʻzbek tili soʻz hazinasini yanada boyishi mumkinligidan dalolat beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.**

1. Baskakov N.A., Sodiqov A., Abduazizov F. Tilshunoslikka kirish. T: Oʻqituvchi. 1979.
2. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie.M:1970.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Birinchi jild. Oʻzbekiston milliy ensiklopidyasiö. Davlat milliy nashriyoti. 2006.

### **Foydalanilgan internet saytlari roʻyxati:**

1. <http://ziyonet.uz>.Filologiya.
2. <http://www.tdpu.uz>.Filologiya.